

**Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ijodiy
qobiliyatlarini applikasiya faoliyati jarayonida shakllantirish**

Ortiqova Aziza

**Jizzax shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi tasarrufidagi 18-
DMTT tarbiyachisi**

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta’lim yo’nalishida tahsil olayotgan talabalari va MTT pedagoglari va ota-onalar uchun muhim tavsfiyalar bayon etilgan.

Kalit so’zlar; siluet ,manotopiya dekorativ , applikasiya mozayika ,naqsh ,syujet.


Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining boshlang’ich pog’onasi hamda jismoniy ma’naviy , ahloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashning muhim jabhasi shuning bilan birgalikda 3-7 yoshdagi bolalarning ta’lim –tarbiyasini yuzaga chiqaradigan bo’g’indir. Bolalarning mehnat qilish orqali uning qiziqishini muhabbatini yuzaga chqarish muhim hisoblanadi.Ta’lim jarayonidagi mehnat turlarida ba’zi qobiliyatlar kelajakdagi kasbining to’g’ri tanlanish bosqichining poydevorida zaruriy amaliyotdir. 2019 yil 16- dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan ‘Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida’gi qonuni tasdiqlanib, ushbu qonun respublikamizda maktabgacha ta’lim sohasidagi innovatsion ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish modelining yaqqol namunasi bo’ldi. Qabul qilinayotgan barcha chora tadbir va qarorlarlar munosabati bilan – maktabgacha yoshidagi bolalarning aqliy intellektual salohiyati, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning samarali mehanizmlari ishlab chiqildi va takomillashtirildi .Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy-kreativ qobiliyatini tarbiyalash orqali ularning, yangi g’oyalarni nomoyon etishga intiluvchanlik va turli vaziyatlarda to’g’ri qaror chiqara olishlari nazarda tutiladi. Olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar , ijodiy qobiliyatga ega b’lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligini ,ular bilan muloqot qilish va do’stona munosabatda bo’lishlarini isbotlaydi.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini ,tasavvurlarini rivojlantirishda applikasiya mashg’ulotlarining imkoniyati cheksizdir. Pedagog tarbiyachi bolalar diqqatini jalb

qila olishi , bolalarda o'zlari yaratgan asarlarni emotsional ma'nosini anglashga intilishini vujudga keltirish , ularning olam haqidagi tushunchalarini muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bola yaratgan asariga qarab idrok qilar ekan unfa beixtiyor yaratuvchanlik va uni xis etish shakllanadi. Yangilikka intiluvchanlikda nomoyon bo'luvchi individual xususiyatlardan biri bo'lgan ijodiy qobilyat bola shaxsining kreativ yondashuvni tanlagan vaqtida nomoyon bo'ladi. Bu vaqt esa shubhasiz applikasiya mashg'uloti jarayonida yuz beradi. Applikasiya mashg'ulotlarini tashkil etishdagi vazifalar quyidagilardan iborat ; Bolalarni tasavvur qilish , tafakkur qilish, go'zallikni xis qilish , ijod qilish faoliyatlari davomida ijodiy qobilyatlarini shakllantirib borishdir . Bollaarga applikasiya mashg'ulotlaridan zavq olishni shu asosda estetik did va badiiy fikr yuritishni rivojlantirishni ko'zda tutadi.


Applikasiya (lot. Arnsayo –yopishtirish) gazlama qog'oz va boshqa materiallarga rang barang gazlama mato charm , qog'oz bo'laklarini tikish yoki yopishtirish yo'li bilan naqsh solish, ularni bezash . Shu usulda yasalgan gul tasvir xam applikasiya deyiladi. Badiiy tasvirni applikasiya tarzda yaratish uslubidir . Bunda shakllar boshqa bir materialga fonga qirqib yopishtiriladi. Tasvirlash texnikalaridan biri bo'lgan applikasiya bolalarning eng sevimli faoliyatidir. Bunda bolalarni qog'ozning yorqin rangi , shakllarning ritmik ketma ketligi quvontiradi . Qirqish va yopishtirish usullari ularda katta qiziqish uyg'otadi. Applikasiya faoliyatida berilgan mavzu bo'yicha predmetning ongli ravishda tasviri paydo bo'lishi ijodiy qobilyatning rivojlanishidagi tasviriy davr hisoblanadi. Qog'ozdan applikasiya nafaqat qiziqarli va mayda qo'l matorikasini rivojlantirishda xam ahamiyatlidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida applikasiya mashg'ulotlarida siluet ¹qirqishga o'rgatiladi. Siluet tasvirlarni qirqish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qulay va oson usuldir . Bunda bolalar kontur chiziqlar orqali ob'ekt nisbarlarinig shakli qanchalik to'g'ri chizilganligini aniqlaydilar. Bunda bolalar predmetning obrazini doim yodda tutishlari yoki o'zlari yaratishlari va konstruksiyaning to'griligini nazorat qilishlari lozim. Applikasiya mashg'uloti bolani ozini baholashni , o'z imkoniyati va kuchiga ishonishni va ijod ranglarini idrok qilish malakalarini shakllantiradi.

¹ Siluet ikki tomoni bir xil qirqish usulidir, kontur chiziqlar orqali konstruksiyaning to'g'riligi



Applikatsiya badiiy asar yaratishning xam qiyin xam sodda usulidir. Applikatsiya usullaridan biri ‘Monotopiya’dir. Monotopiya bu qog’ozda plastmassa doskaga , oynaga moybo’yoqlarda chizilgan bo’lib, unda bo’yoq ranglarining soni istalgancha bo’ladi. Bunda bo’yoq ranglardan foydalanib dog’lar hosil qilinadi va surat noaniq bo’ladi .Bolalarning tasavvurlari va dunyoqarashlari fikrlashlariga qarab tasvir izohlanadi .Barcha bolalarning fikri bir xil chiqmasligi tabiiy .Ba’zida shtrix chiziqlar va rang dog’lari hosil bo’ladi. Monotopiya kam qo’llaniladigan usullardan biri bo’lib , bunday badiiy texnika zamirida bolalarni qiziqtiradigan ko’p sirli va jozibali xolatlar mavjud. Applikatsiya mashg’ulotlarining ahamiyatlisi xam uning qiziqarli tashkil etilishiga bog’liq bo’lib ,bolalarning ijodiy shakllaniiga katta ta’sir ko’rsatadi. Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurrok, bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shugullanishdan zerikmaydi. Bu esa o’z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o’stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar applikatsiyaning barcha turlarini o’zlashtirib olishlari kerak Bu mashg’ulotlarga tayyorgarlik mashg’ulotlari sirasiga mozayika o’yinlari kiradi. Ular yordamida bolalar tayyor geometrik shakllarni yoyib , ularning o’ziga xosliklari rangi va joylashish uslubi naqsh yaratish prinsplari bilan tanishadilar. Ijodiy rivojlanishga samarali ravishda ta’sir ko’rsatadigan bu usul bolalarga yangi tasvir yoki yangi dizayindagi ko’rinish yaratish imkonini beradi. Applikatsiya mashg’ulotlari bolalarda turli materiallar va ularning o’ziga xosliklari bilan tanishish , fantaziya tasavvur ijodiy qobilytalar rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarga ega . Bunda naqshlar tayyor geometrik shakl yoki o’simlik shakllaridan tashkil qilish mumkin. Tayyor shakllarni dekorativ ishlarda qo’llash bolalarga naqsh elementlarni ritmik ketma-ketlikda bir –biriga mos ranglarni tanlashda, diqqatni jamlashda yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning applikasiya mashg'ulotlarida olgan malakalari, ularning kelgusidagi konstruksiyalashda va o'yinchoqlar yasashda, turli dekorativ bezaklarni yaratishda qo'l keladi.



Dekorativ² applikasiyaning bolalarning ijodiy faolligini oshirishda vazifalari shuindan iboratki buna bolalar mavjud bo'lmagan shakllarni qo'shish, ranglarni o'zgartirish imkoini beradi. Dekor bu buyumlarni bezash tizimi va predmetlarning ularning shakli rangi va boshqa xususiyatlarga ko'ra bezash vositasidir. Shu tarzda applikasiya mashg'ulotali bir tomondan tasvirlashdagi faolligi shakllanishiga, boshqa tomondan esa bolalarda ijodiy qobiliyatlar shakllanishiga yordam beradi. **Dekorativ applikasiya**- bu naqsh gullaridan tortib, alohida alohida tasvirlar (barg shox, qo'ziqorin odam, mashina, uy, qush) dan tarkib topuvchi predmetli xodisa, xarakterlar uyg'unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki Maktabgacha ta'lim muhim funksiyalari sifatida bolaning ijtimoiylashuv jarayonini muayyan ilmiy metodik zaminga asoslangan holda amalga oshirish, ularni va undagi voqealarni ilmiy asosda anglashga o'rgatish bosqichma-bosqich bolani maktab ta'limiga tayyorlashni ko'zda tutish lozim.

² Dekorativ lotincha décor, decororis- go'zallik nafosat, ziynat uchun xizmat qiladigan ko'rkamlik go'zallikbaxsh etadigan bezak san'atidir

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan 'Tasviriy faoliyat' mashg'ulotlari tizimidagi applikasiya faoliyati vazifalarida bolalarning iqtidorini aniqlash va ularga to'g'ri yonalish berish orqali ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirib borish ijtimoiy pedagogik ahamiyatga egadir. Applikasiya mashg'ulotlarini tashkil etishdan maqsad eng avvalo bolalarning badiiy ijodkorlik qobiliyatlarini ularni hayotga o'qishga, mehnatga, turli xatti xarakat;arga go'zallik olib kirish va atrof-muhitdagi barcha narsalarga go'zallik kirita olishga o'rgatishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari.2018 yil
2. 'ILK QADAM' o'quv dasturi 2018 yil
3. G.A.Amirova, A.P.Suloymonova, B.P.Djo'raeva Maktabgacha ta'lim muassasalarida applikasiya mashg'ulotlari. Toshkent : 2014 yil

Internet saytlari

www.lex.uz

www.ziyonet.uz

www.google.uz

**Research Science and
Innovation House**